

ANJUMAN | KONFERENCLAR | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

2022

ERNEST XEMINGUEY

(1899-1961)

Chol qushlar va ayniqsa, belinim oziq
axtariib uchgan, ammo deyarli hech qachon
uni topolmaydigan jumlil va nozik dengiz
qaldirg'ochlariga achiqib ketar va qushlar
turmushi, qirin-qora va katta, kuchli
qushlarni hisobga olmayanda, buning kun
kechirishimizga qaraganda ham juda og'ir.
Okean gohida shu qadar ham beshim dollar
ekan, nima uchun qushlarni mana bu
dengiz qaldirg'ochlari singari nozik va
shikasta qilib yaratganlar. Okean saxsi va
go'zal, ammo u go'ho to'satdan shunday
shaf-qatsiz bolib ketadiki, uning ustidagi
oziq dindagi chary urib chonib, o'zi va
mangli ovoz bilan bir-birlariga jo'r bolib
uchgan bu qushlar unga nisbatan
beshinoya zalf va mo'ri ko'rinadi.

"CHOL VA DENGIZ" ASARI

AVGUST

№43



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
8-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-8**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-8**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 43-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 август 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Satibaldiyeva Nadira Yuldashevna HAMID OLIMJONNING XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH MAHORATI	7
2. Ismoilova Sayyora, Reyimberganova Sabohat Ulug'bek qizi ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI	9
3. Rahimova Nodira ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI	11
4. Yoqutjon Yoqubova O'TKIR HOSHI MOV ASARLARIDA SO'ROQ GAPLAR LINGVOPOETIKASI.....	13



АДАБИЁТ

HAMID OLIMJONNING XALQ OG'ZAKI IJODIDAN FOYDALANISH MAHORATI

Satibaldiyeva Nadira Yuldashevna

Xorazm viloyati Hazorasp tumani
19-son umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Tel: +998938656363

Annotatsiya: Mazkur maqolada Hamid Olimjon ijodida xalq og'zaki ijodining ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: H.Olimjon, xalq og'zaki ijodi, asar, voqea, obraz, mahorat.

H.Olimjonning folklor ruhida yaratilgan liro-epik asarlari bugungi kunda ham estetik qimmatini yo'qotmaganligi bilan barobar, o'z davrida juda muhim adabiy-tarixiy vazifani ado etgan edi. XX asrning 30-yillari dostonchiligiga bag'ishlangan ko'pgina tadqiqotlarda, monografiya va maqolalarda masalani bu tomoniga juda kam ahamiyat berilgan. Ma'lumki, o'sha yillarda amalga oshirilgan vazifa yoppasiga savodsizlikni tugatish ishi xalqimiz ongida katta o'zgarishlar yasadi. Uning adabiyot va san'at sohasidagi alohida hosiylari shu bo'ldiki, asrlar mobaynida tinglovchi bo'lib kelgan keng xalq ommasini o'quvchi, ya'ni kitobxonga aylandi. Biroq uning doston va ertak voqealari ta'sirida barqarorlik kasb etgan ko'nikmalari yozma adabiyot qonuniyatlarini, ayniqsa, Yevropa, rus va o'zga qardosh xalqlar adabiyotlari ta'sirida yaratilgan yangicha uslubdagi asarlarni qabul qilishga tayyor emasdi.

(Bu haqda A.Qodiriy “O'tkan kunlar” romani tanqidi yuzasidan bildirilgan fikrlarni eslaylik). H.Olimjon kitobxonlar dilidagi ma'naviy ehtiyojini birinchilardan bo'lib to'g'ri anglab va his qilib o'z asarlarini maksimal darajada xalq hayoti bilan bog'lashga intildi. Bu fikrni uning quyidagi so'zlari ham tasdiqlaydi: “O'zbek adabiyotini yuksaltirish, uning tilini chin xalq tili qilish, sodda va chuqur qilish va nihoyat, umuman aytganda, o'zbek sovet adabiyotini chin ma'noda xalqchil qilish uchun folklorning ahamiyati buyuk bo'lur”.

Ana shu intilishlar samarasi va ijodiy izlanishlari natijasida shoirning bir qator ballada va dostonlari “chin ma'noda xalqchil” asarlar darajasiga ko'tarildi. Xususan, “Jangchi Tursun” balladasi shunday asarlar sirasiga kiradi. Xo'sh, bu asarda ishtirok etgan folklor unsurlari nimalardan iborat?

Bu o'rinda avvalo shuni aytib o'tish kerakki, “Jangchi Tursun” balladasi shoir tomonidan bir necha lirik she'rlarda “razvedka” qilib ko'rilgan jangchi o'g'il va ona munosabatlarining badiiy takomilidir. Zero, asarning g'oyaviy-estetik ta'siri asosan onaning so'zlariga jalb qilingan. Professor H.Yoqubovning to'g'ri ta'kidlaganidek: “Xalq og'zaki poetik ijodi ritmi bilan yo'g'rilgan ona nutqi farzandi haqida eshitgan xabar bilan boshlanib, ketma-ket o'g'liga berilgan otashin savollarga va nihoyat qat'iy buyruqqa, qalb amrining nakaziga aylanadi”.

Biz o'z oldimizga qo'ygan masalaga ustoz domla ham juda to'g'ri yondasha olgan, ya'ni H.Olimjonning “Jangchi Tursin” balladasida folklordan qay usulda foydalanganini aniqlab bergan. Darhaqiqat, nazarimizda, bu asarda folklorning shakliy komponentlaridan unumli foydalangan. Jumladan, ona nutqining yarmi xalqning jonli tiliga xos ritorik so'roq shaklida, ikkinchi yarmi esa hukm tariqasida ifoda etilgan. Onaning so'roqlari vatani, el-yurti va oilasi sha'nini muqaddas deb biluvchi har bir kishining yuragida oriyat hislarini qo'zg'atuvchikuchga ega. Bu masalada ikkilanuvchilar yuragiga onaning so'roqlari o'qday qadaladi:



Ko'chadan o'taginingda,
Yerga qarasinmi el?
Ikki ko'zingga qarab
Tuproq to'zg'isinmi el?

Mard o'g'lonlar elning faxri va ishonchi. Ular ko'ksini yovga qalqon qilib doimo elni ofatdan saqlab kelganlar. Shuning uchun ham jangda ikkilanayotgan Tursunga el o'g'lonlarining ana shu udumini eslatadi:

Yigit bo'lib dunyoda
Shu uchun yurganmiding?
O'z yurtidan chekingan
Botirni ko'rganmiding?

Ona nutqining ikkinchi qismida, yuqorida aytilganidek, ritorik so'roq o'rnini hukm egallaydi. Shoir shu o'rinda folklarga xos muhim bir detalni qo'llaydiki, u balladani badiiy salmog'ini juda yuqori darajaga ko'taradi. Bu qonli ko'ylak detalidir. U ona Tursun oldiga qo'yayotgan talablarning kulminatsiyasi sifatida diqqatni jalb qiladi.

H.Olimjon xalq og'zaki ijodiyotining bebaho namunalaridan saralab olgan badiiy jamg'armalari hech bir mubolaga'asiz aytish mumkinki dramatik asarlari to'qimasiga ham singib ketdi. Bu hol ikkinchi jahon urushi davri o'zbek adabiyotida folklarga bo'lgan yalpi qiziqishning xarakterli namunalaridan biri sifatida izohlanadi. Chunonchi, "Muqanna" dramasi g'oyaviy-kompozitsion negizi quyidagi uch asosga: tarixiy haqiqatga, badiiy to'qimaga va xalqning Muqanna haqidagi to'qigan rivoyatlariga bevosita tayanilgan.

Hamid Olimjon ibn Hakim shaxsiyatiga dialektik nutaqi nazardan yondashadi. Uning qalamida Muqanna tarixiy haqiqat va badiiyat mezonlariga muvofiq tajassumini topadi. Yozuvchi intellekti obraz estetikasini belgilagani singari, H.Olimjon ijodiy fantaziyasining kengligi, tarixiy arboblarning hodisalar haqidagi tushunchasi drama muvaffaqiyatini ta'minladi.

Asar voqealarini harakatga keltiruvchi obrazlarning asosiy qismi bevosita H.Olimjon fantaziyasining mahsullaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. T.: 2008.
2. www.leterature.uz sayti



ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Ismoilova Sayyora,

Xorazm viloyati Bog'ot tumani

29-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon: +998930922444

Reyimberganova Sabohat Ulug'bek qizi,

Xorazm viloyati Bog'ot tumani

49-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon: +998991436949

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning serqirra ijodiga xos ko'pgina fazilatlarni ochib berishga, obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik g'oyalari, serqirra ijod, obraz yaratish, Vatan mustaqilligi, qissa va romanlar, mafkuraviy kurash.

Abdulla Qahhor XX asr o'zbek adabiyoti xazinasiga o'zining realistik hikoya, qissa, roman, dramatik asarlari va badiiy tarjimalari bilan munosib hissa qo'shgan siymolardan biridir. Adibning mustaqillik g'oyalari hamohang bo'lgan asarlari bugungi kunda ham zamondoshlarimiz tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda.

A. Qahhorning serqirra ijodi adabiyotshunoslikda atroflicha tadqiq qilindi va qilinmoqda. Xususan, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Baxtiyor Nazarov, Umarali Normatov, Ibrohim Haqqul singari adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida Abdulla Qahhor ijodiga xos ko'pgina fazilatlar ochib berilgan. Ayniqsa, istiqlol yaratib bergan erkin va xolis mezonlar asosida adabiyotni o'rganish va tadqiq qilish davrida adib ijodining hali ochilmagan yangi qirralarini kashf etishda munosib ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu ma'noda, A. Qahhorning obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish o'rindir.

Misol tariqasida olsak, «Sarob» romanida o'tgan asrning boshlarida ijtimoiy omillar ta'sirida yuz bergan voqealar favqulodda bir mahorat bilan tasvirlangan. Bu asar tarixiy mavzuda yozilgan, lekin qahramonlari tarixiy shaxslar bo'lmasa ham tarixiy haqiqatga mos, yozuvchi fantaziyasi bilan yaratilgan obrazlar bo'lib, tarixiy voqealarga nisbatan ko'proq umumlashirilgan shaxslardir. «Sarob» notinch yillar ruhiga mos va hamohang bo'lib, davr voqeligi tasviriga bag'ishlangan birinchi romandir. Unda jamiyatda bo'lib o'tgan mafkuraviy kurash tasvirlangan.

Asarni bir eslab ko'raylik. «Sarob»da Abdulla Qahhor Saidiy taqdirini batafsil tasvirlaydi, Murodxo'ja domla, shahar maorif bo'limining mudiri Salimxon, adabiyotshunos Abbosxon, tergovchi Mirza Muhiddin, Munisxon, Soraxon, jurnalist Yoqubjon, savdogar Muxtorxon kabi bir qator obrazlarning har birining o'ziga xos xarakteri, ichki dunyosi, ruhiyati, maqsadu niyatlarini yorqin aks ettiradi. Ayniqsa, Murodxo'ja domla xarakteri jonli va to'laqonli qilib gavdalanadi.

Abdulla Qahhor ajoyib hikoya, qissa va romanlar yaratish bilan birga, adabiyotning eng qiyin janri bo'lgan dramaturgiya sohasida ham iste'dodini namoyish etdi. Adibning dramaturgiyada ko'targan mavzulari hanuzgacha dolzarb bo'lib turibdi. Uning «Yangi yer», «Og'riq tishlar», «Tobutdan tovush» kabi komediyalari o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida yangi bosqich bo'ldi.

Mana shu asarlarida ham A. Qahhor haqiqiy obraz yaratish, ta'sirchanligini yuqori nuqtalarga yetkazishni asosiy ishlardan biri deb bilgan.

Masalan, «Yangi yer» asarida adib zamondoshlari obrazi, yorqin xarakterlar yaratishda katta yutuqlarni qo'lga kiritgan. Komediya Dehqonboy, Hafiza va Qo'ziyev kabi sofdil, vijdonli yoshlarning umumlashma obrazlari, Mavlon aka singari mehnatsevar, sodda, halol, biroq manmanlikka berilgan o'jar kishi obrazi, shuningdek, Hamrobuvi va Xolnisoga o'xshagan samimiy va mehribon ona obrazlari ishtirok etadi.

«Og'riq tishlar» komediyasiga chuqurroq nazar tashlasak, asarda zamonaviy mavzu aks ettirilganligi, ammo asarda hayotdagi jamiyat taraqqiyotini idrok etadigan kishilar emas, balki kelajak yo'lga to'siq bo'layotgan shaxslar tasvirlanayotganligining guvohi bo'lasiz. Bu, albatta, asar janr xususiyati bilan bog'liq. Komediya zaharxanda kulgi – satira ustun turadi. Avvalo, dramaturgning ustaligi shundaki, u asarning markaziy obrazlarining biri hisoblangan Zargarov singari nopok illatlarni aks ettiruvchi kimsalarni fosh etish asosida halollikni, tenglikni,



insoniylikni, adolatni targ‘ib etadi. Zargarovning sharmandayu sharmisor bo‘lishini ko‘rsatishda satiradan ustalik bilan foydalanadi. Natijada, Zargarov obrazini jonli va juda ishonarli ko‘rsatishga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tgan asrning murakkab muhitida yashab, ijod qilgan, Istiqlolimizni astoydil qo‘msagan, adolat mavzusini o‘ziga bayroq deb bilgan betimsol so‘z san’atkori Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotini betakror badiiy obrazlar hisobiga boyitdi va bu boradagi yutuqlari adibning yetuklikka ko‘tarila olganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor . Asarlar (5tomlik). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987-1989.
2. Abdulla Qahhor “Zilzila”, -“Sharq yulduzi”, 1996, 11-12-son.



ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Rahimova Nodira,

Xorazm viloyati Xonqa tumani

8-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Telefon: +998932808672

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning serqirra ijodiga xos ko'pgina fazilatlarini ochib berishga, obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik g'oyalari, serqirra ijod, obraz yaratish, Vatan mustaqilligi, qissa va romanlar, mafkuraviy kurash.

Abdulla Qahhor XX asr o'zbek adabiyoti xazinasiga o'zining realistik hikoya, qissa, roman, dramatik asarlari va badiiy tarjimalari bilan munosib hissa qo'shgan siymolardan biridir. Adibning mustaqillik g'oyalari hamohang bo'lgan asarlari bugungi kunda ham zamondoshlarimiz tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda.

A. Qahhorning serqirra ijodi adabiyotshunoslikda atroflicha tadqiq qilindi va qilinmoqda. Xususan, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Baxtiyor Nazarov, Umarali Normatov, Ibrohim Haqqul singari adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida Abdulla Qahhor ijodiga xos ko'pgina fazilatlar ochib berilgan. Ayniqsa, istiqlol yaratib bergan erkin va xolis mezonlar asosida adabiyotni o'rganish va tadqiq qilish davrida adib ijodining hali ochilmagan yangi qirralarini kashf etishda munosib ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu ma'noda, A. Qahhorning obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish o'rinlidir.

Misol tariqasida olsak, «Sarob» romanida o'tgan asrning boshlarida ijtimoiy omillar ta'sirida yuz bergan voqealar favqulodda bir mahorat bilan tasvirlangan. Bu asar tarixiy mavzuda yozilgan, lekin qahramonlari tarixiy shaxslar bo'lmasa ham tarixiy haqiqatga mos, yozuvchi fantaziyasi bilan yaratilgan obrazlar bo'lib, tarixiy voqealarga nisbatan ko'proq umumlashtirilgan shaxslardir. «Sarob» notinch yillar ruhiga mos va hamohang bo'lib, davr voqeligi tasviriga bag'ishlangan birinchi romandir. Unda jamiyatda bo'lib o'tgan mafkuraviy kurash tasvirlangan.

Asarni bir eslab ko'raylik. «Sarob»da Abdulla Qahhor Saidiy taqdirini batafsil tasvirlaydi, Murodxo'ja domla, shahar maorif bo'limining mudiri Salimxon, adabiyotshunos Abbosxon, tergovchi Mirza Muhiddin, Munisxon, Soraxon, jurnalist Yoqubjon, savdogar Muxtorxon kabi bir qator obrazlarning har birining o'ziga xos xarakteri, ichki dunyosi, ruhiyati, maqsadu niyatlarini yorqin aks ettiradi. Ayniqsa, Murodxo'ja domla xarakteri jonli va to'laqonli qilib gavdalanadi.

Abdulla Qahhor ajoyib hikoya, qissa va romanlar yaratish bilan birga, adabiyotning eng qiyin janri bo'lgan dramaturgiya sohasida ham iste'dodini namoyish etdi. Adibning dramaturgiyada ko'targan mavzulari hanuzgacha dolzarb bo'lib turibdi. Uning «Yangi yer», «Og'riq tishlar», «Tobutdan tovush» kabi komediyalari o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida yangi bosqich bo'ldi.

Mana shu asarlarida ham A. Qahhor haqiqiy obraz yaratish, ta'sirchanligini yuqori nuqталarga yetkazishni asosiy ishlardan biri deb bilgan.

Masalan, «Yangi yer» asarida adib zamondoshlari obrazi, yorqin xarakterlar yaratishda katta yutuqlarni qo'lga kiritgan. Komediya Dehqonboy, Hafiza va Qo'ziyev kabi sofdil, vijdonli yoshlarning umumlashma obrazlari, Mavlon aka singari mehnatsevar, sodda, halol, biroq manmanlikka berilgan o'jar kishi obrazi, shuningdek, Hamrobuvi va Xolnisoga o'xshagan samimiy va mehribon ona obrazlari ishtirok etadi.

«Og'riq tishlar» komediyasiga chuqurroq nazar tashlasak, asarda zamonaviy mavzu aks ettirilganligi, ammo asarda hayotdagi jamiyat taraqqiyotini idrok etadigan kishilar emas, balki kelajak yo'liga to'siq bo'layotgan shaxslar tasvirlanayotganligining guvohi bo'lasiz. Bu, albatta, asar janr xususiyati bilan bog'liq. Komediya zaharxanda kulgi – satira ustun turadi. Avvalo, dramaturgning ustaligi shundaki, u asarning markaziy obrazlarining biri hisoblangan Zargarov singari nopok illatlarni aks ettiruvchi kimsalarni fosh etish asosida halollikni, tenglikni, insoniylikni, adolatni targ'ib etadi. Zargarovning sharmandayu sharmisor bo'lishini ko'rsatishda satiradan ustalik bilan foydalanadi. Natijada, Zargarov obrazini jonli va juda ishonarli ko'rsatishga erishadi.



Xulosa qilib aytganda, o‘tgan asrning murakkab muhitida yashab, ijod qilgan, Istiqlolimizni astoydil qo‘msagan, adolat mavzusini o‘ziga bayroq deb bilgan betimsol so‘z san’atkori Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotini betakror badiiy obrazlar hisobiga boyitdi va bu boradagi yutuqlari adibning yetuklikka ko‘tarila olganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor . Asarlar (5tomlik). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987-1989.
2. Abdulla Qahhor “Zilzila”,-“Sharq yulduzi”, 1996, 11-12-son.



О‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA SO‘ROQ GAPLAR LINGVOPOETIKASI

Yoqutjon Yoqubova,
ilmiy tadqiqotchi

Annotatsiya. Ushbu izlanishda so‘roq gaplarning ma’no turlari hamda lingvopoetik xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. So‘roq gaplar badiiy asar ta’sirchanligini ta’minlashda hamda obraz, qahramonlarning ichki dunyosini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etishi misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, emotsiya, so‘roq gaplar, ritorik so‘roq gaplar, emotsional-ekspressiv.

Аннотация. В данном исследовании обсуждаются типы значения и лингвопоэтические особенности вопросительных предложений. На примерах освещается значение вопросительных предложений в обеспечении действенности художественного произведения в раскрытии внутреннего мира героев и персонажей.

Ключевые слова: лингвопоэтика, эмоция, вопросительные предложения, риторические вопросительные предложения, эмоционально-экспрессивные.

Annotation. In this article, the types of meaning and linguopoetic features of interrogative sentences are discussed. The importance of interrogative sentences in ensuring the effectiveness of an artistic work of art and in revealing the inner world of characters is highlighted through examples.

Key words: linguo poetics, emotsion, interrogative sentences, rhetorical interrogative sentences, emotional-expressive.

Muloqot jarayonini so‘roq gaplarsiz tasavvur qilish qiyin. So‘zlashish, fikr almashish vaqtida, albatta, so‘roq gaplarga murojaat qilinadi. So‘roq gaplar noma’lum bo‘lgan voqea-hodisa haqida ma’lumot olish maqsadida ishlatiladi. Badiiy asarlarda so‘roq gaplar muhim ahamiyatga ega. So‘roq gaplarning turlarini o‘zaro suhbatlar jarayonida ko‘plab uchratishimiz mumkin. Badiiy matnda esa so‘roq gaplarning barcha turlarini har xil shakllarda ko‘rishimiz mumkin. Tilning holati, undagi xilma-xil hodisalar, qonun-qoidalarini tavsiflovchi darslik va boshqa o‘quv qo‘llanmalarida ham asosiy faktik material badiiy asarlardan olinadi.¹ Shu nuqtayi nazardan, biz ushbu izlanishimizda ilgari surilgan ilmiy nazariyalarga misollarni sevimli adibimiz O‘tkir Hoshimov asarlaridan keltirdik. O‘tkir Hoshimov – O‘zbekiston xalq yozuvchisi. U o‘zbek nasri taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ijodkordir. O‘tkir Hoshimov Abdulla Qahhor nazariga tushgan va duolarini olgan yozuvchidir. U go‘zal hikoya, qissa, romanlar muallifidir. Xalqimizning ma’naviy merosiga aylangan yozuvchining asarlari kitobxonlar tomonidan sevib o‘qib kelinmoqda.

Badiiy matnda gaplar, asosan, mazmun jihatdan murakkab bo‘ladi. Bunda darak, so‘roq, buyruq ma’nolari bilan bog‘langan turli xil tuyg‘ular ifodalanishi mumkin. Masalan: *Imtihondan o‘tdim!* Ushbu jumlada *imtihondan o‘tganligi* haqida xabar va so‘zlovchining bundan xursandligini ifodalash ham bor. *Bu kitobni o‘qib ko‘ring.* Bu gapda buyruq ma’nosi bilan birga taklif, maslahat ma’nosi ham ifodalangan. Gapning ma’no turlaridan, ayniqsa, so‘roq gaplar fikriy jihatdan murakkab bo‘ladi. So‘roq gaplar sof so‘roq ma’nosi bilan birga yana boshqa semalarni ham ifodalay oladi. Quyida O‘tkir Hoshimovning asarlaridan olingan turli xil semalarni ifodalovchi so‘roq gaplarni ko‘rib chiqamiz:

1. Buyruq semasi: Menga qarang singlim, bozorga kiraverishdagi maydonchada sotmaysizmi?
2. Sof so‘roq semasi: Soatga kim tegdi?
3. Kuchli hayajon, afsuslanish semasi: Nima qilib qo‘ydim, ukam!
4. Norozilik, taqiqlash semasi: Nega kulni polga tashlaysiz?
5. Taajjub, hayrat semasi: 1. Iye Toymisan? 2. Qarz? Hali birovdan qarz ham olasizmi?
6. Hayrat, buyruq semasi: 1. Uyalmaysanmi? Shunaqa degani.
2. Nega qiynaysan bola bechorani?
8. Ta’kid, uqtirish semasi: Hech kim sizni sotib yuborayotgani yo‘q-ku?
9. Ruxsat semasi: Jon singlim, bir narsa so‘rasam maylimi?
10. G‘azab semasi: Endi shu hunarni o‘rgandingmi?

1 Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – T.: Fan, 2008, 8-bet.



So‘roq gaplar quyidagi ma‘no turlariga bo‘linadi:

1. Sof so‘roq gaplar
2. So‘roq-buyruq gaplar
3. Ritorik so‘roq gaplar

1. Sof so‘roq gaplar. Bunday gaplar javob talab qiladigan so‘roq gaplardir. Masalan: 1. Judayam ivib ketibsiz-ku, mehmon? (“ Ko‘prik”)

2. Bolalar, uning yong‘oqqa tosh otganini hech kim ko‘rmadimi? (“ Dunyoning ishlari”)

3. Qorovul quvlasa yantoqzordan qocha olasanmi? (“ Dunyoning ishlari”)

4. Eng toza tuyg‘u nima? Birinchi maoshingizni keltirib berib, otangizning duosini olganingizmi? Birinchi marta sovg‘a keltirib berganingizda onangizning ko‘zida qalqigan yoshmi? (“ Daftar hoshiyasidagi bitiklar”)

5. Ovqatingdan qolmadimi? – dedi u cho‘qqalab o‘tirgancha choy quyayotgan xotiniga qarab. (“ Urushning so‘nggi qurboni”)

6. –Hali uxlamovmiding? (“ Urushning so‘nggi qurboni”)

7. –Katta ada, buvim o‘ldila...dedi ko‘zlarini pirpiratib.

– Nima? – etim seskanib ketdi. –Nima deding? (“ Ikki eshik orasi”)

8. Nimani qidiraysiz? (“ Dunyoning ishlari”)

–Voy, yuzingizga nima qildi?

– O‘tin tegib ketdi,– dedi onam sekingina. (“ Dunyoning ishlari”)

Bunday so‘roq gaplar shubha, taajjub kabi qo‘shimcha mazmunlarga ham ega bo‘la oladi. Buni jonli nutqda ohang ko‘rsatadi. Masalan: *Voy- bu! Shuncha odam qayoqdan kelgan?* “ Dunyoning ishlari ” asaridan olingan ushbu so‘roq gapda taajjub ma‘nosi, *“Tavba, nimaga otasi bezovta bo‘lib yuribdi, yo Muxtorjonga bir nima bo‘ldimikan?”* – yozuvchining “ Dard” hikoyasidan keltirilgan bu gapda esa, so‘roq ma‘nosi bilan birga shubha, tashvish, xavotir emotsiyalari ham ifodalangan.

2. So‘roq-buyruq gaplar. Buyruq mazmunini ifodalovchi gaplar so‘roq-buyruq gap hisoblanadi. So‘roq gap shakli orqali ifodalangan buyruq mazmuni buyruq gap shakli orqali ifodalangan buyruq mazmuniga nisbatan mayinroq bo‘ladi.¹ Masalan: – *Pochchangga salom bermaysanmi?* (O‘.Hoshimov) Shaklan so‘roq gap hisoblangan ushbu gap mazmunida *“pochchangga salom ber”* buyruq ma‘nosi ham ifodalangan. – *Hoy, menga qarang, xola keliningizga atlas olib qo‘ymaysizmi?* O‘tkir Hoshimovning “ Dard” hikoyasidan olingan ushbu so‘roq gapda *“keliningizga atlas olib qo‘ying ”* buyruq ma‘nosi mavjud. *Hech bo‘lmasa qo‘shniligingni o‘ylamaysanmi?* “ Dunyoning ishlari ” asaridan olingan bu gapda esa, *“ hech bo‘lmasa qo‘shniligingni o‘yla ”* degan mazmundagi buyruq ma‘nosi bor. *Menga desa otib tashlamaydimi?* “ Urushning so‘nggi qurboni ” hikoyasi qahramoni Shoikrom tomonidan asarda uch marta takror qo‘llangan ushbu gapda *“menga desa otib tashlasin ”* degan qat‘iy buyruq ma‘nosi ifodalangan. – *Siz hayotiy problemalargayam aralashasizmi yo nuqul kitob yozaverasizmi?* “ Dunyoning ishlari ” asaridagi bu gapda esa, *“ siz hayotiy problemalargayam aralashing ”* degan mazmundagi buyruq ma‘nosi mavjud. Bunaqa misollarni adibning asarlaridan ko‘plab keltirishimiz mumkin.

3. Ritorik so‘roq gaplar. Bunday gaplar javob talab qilmaydi. Bunda so‘roq yo‘li bilan tasdiq mazmuni beriladi (yashirin tasdiq). So‘roq gapning bu turi fikrni emotsional tusda, kuchli, ifodali, ta’sirli qilib beradi. Yashirin inkor mazmuniga ega bo‘lgan so‘roq-inkor gaplar ritorik so‘roq gapning bir ko‘rinishidir. Ritorik so‘roq gapda yashirin javob shu gapning o‘zidan bilinib turadi.

Kimman o‘zi? Nega odamlarga azob berishim kerak? Nima haqqim bor?.. Katta vijdotsizliklar kichkina nopoklikdan boshlanishini bilsam nima qilay axir? “ Ikki eshik orasi” asaridagi bu parcha ritorik so‘roq namunasi, unda *“ hech kim emasman, hech qanaqa haqqim yo‘q ”* mazmunidagi yashirin inkor ma‘nolari ifodalangan.

“ Voy gapingiz qurmasin, ovsin, ona sutiya sotiladimi? Birovga yaxshilik qilib, ketidan tama qilgan odamning savobi gunohga aylanadi”, deyдилar. “ Dunyoning ishlari” asaridagi bu gapda esa, *“ ona suti sotilmaydi ”* yashirin inkor ma‘nosi mavjud.

O‘zi kechalari smenada bo‘lsa, xotini uchta jo‘ja bilan jon hovuchlab tong orttirs, o‘g‘riga o‘ljaning katta-kichigi bormi? “ Urushning so‘nggi qurboni ” hikoyasidagi bu gapda *“o‘g‘riga o‘ljaning katta-kichigi bo‘lmaydi ”* degan yashirin inkor ma‘nosi ifodalangan ritorik so‘roq gap.

Qachongacha qalbakilik qilamiz? Qachongacha yolg‘on-yashiq plan bajarib, bayroq olamiz? Shu uyda o‘zing yasharmiding noinsof? Nega o‘zingga ravo ko‘rmagan narsani o‘zgalarga ravo

¹ Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. – T.: O‘qituvchi, 1995, 30-b.



ko‘rasan? “ Ikki eshik orasi” asaridagi bu parchada “ *shu uyda o‘zing yashamasding* ” yashirin inkor ma’nosi ifodalangan ritorik so‘roq gap mavjud.

Odam bu dunyodan nima obketadi? “ Dunyoning ishlari ” asaridagi bu gap

“*odam bu dunyodan hech narsa olib ketolmaydi* ” mazmunidagi ritorik so‘roq gapdir.

Qo‘yinglar endi, – dedi iltijoli ohangda. – Olgan bo‘lsa olgandir. Birovning qo‘lidan tutmagandan keyin nima deysiz? “ Dunyoning ishlari” asridagi bu gap esa “ *birovning qo‘lidan tutmagandan keyin hech narsa deyolmaysan* ” yashirin inkor mazmunidagi ritorik so‘roq gap.

Dunyoning ustuniman deb yurgan azamatlar o‘ylashga ham qo‘rqadigan haqiqatni masxaraboz aytmaydi deb o‘ylaysizmi? “ Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridan olingan bu gapda esa “ *dunyoning ustuniman deb yurgan azamatlar o‘ylashga ham qo‘rqadigan haqiqatni masxaraboz ham ayta oladi*” yashirin tasdiq ma’nosi ifodalangan.

Axir odam umrbod unutilmaydigan, umrbod o‘zini kechirolmaydigan narsalar ham bo‘ladi-ku jahonda?! “ Ikki eshik orasi” asaridan olingan bu gapda ta’kid, tasdiq ma’nolari ifodalangan.

Men uchta jo‘ja bilan jonimni hovuchlab o‘tirganim yetmaydimi?! “ Urushning so‘nggi qurboni ” hikoyasi qahramoni Xadichaning bu ta’nali gapida “ *men uchta jo‘ja bilan jonimni hovuchlab o‘tirganim yetadi* ” yashirin tasdiq ma’nosi mavjud.

Dunyoga kelib nima karomat ko‘rsatdik?! Ko‘prik soldikmi, machit qurdikmi?..

“ Dunyoning ishlari” asaridagi bu gapda “ *dunyoga kelib hech qanday karomat ko‘rsatmadik*” yashirin inkor ma’nosi ifodalangan.

O‘tkir Hoshimov shunday yozgan: “ Shunday asarlar yozsangki, kitobxon uni o‘qiganda hamma narsani unutsa. Asar qahramonlari hayoti bilan yashasa. Quvonsa, iztirob cheksa...” Bunday natijaga erishish yozuvchi uchun eng yuksak baxt bo‘lsa kerak. O‘tkir Hoshimovni mana shunday baxtga erishgan yozuvchi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Darhaqiqat, uning asarlarini o‘qish jarayonida voqealar rivojiga aralashib ketamiz. Asar qahramonlari quvonsa, quvonamiz, iztirob cheksa xafa bo‘lamiz, yig‘lasa yig‘laymiz. Adibning asarlaridan keltirilgan yuqoridagi so‘roq gaplar asarning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Bundan tashqari, qahramonlarning xarakterini, ichki dunyosini ochib berishda ham muhim ahamiyat kasb etgan.

Foydalanilgan ilmiy adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. –T.: «O‘qituvchi », 1995.

2. Qurbonova M., Yo‘ldoshev M. Matn tilshunosligi.–T.: «Universitet », 2014. 3. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: «Fan», 2008. 4. Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari.– T.: «Fan », 2007.

5. Yo‘ldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili. –Toshkent, 2007.

Foydalanilgan badiiy adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – T.: «Sharq», 2005.

2. Hoshimov O‘. Daftar hoshiyasidagi bitiklar.– Toshkent, 2008.

3. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – T.: «Sharq», 2007.

4. O‘zbek hikoyalari antologiyasi. – Toshkent, 1997.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.08.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000